

***ISSN:3060-4567 Modern education and development***  
**TIBBIY TEXNIKA VA TIBBIY TEXNOLOGIYALARI FANINI**  
**AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDANFOYDALANIB O'QITISHNING**  
**INNOVATSION YO'NALISHLARI**

***Nabiyev Abdullo Abduvoxidovich***

*Samarqand davlat tibbiyat universiteti*

Hozirgi davr ta`lim taraqqiyoti yangi yo`nalish-innovatsion faoliyatni maydonga olib chiqdi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g`risida“gi PF-6097-sonli farmoni va 2021-yil 1-apreldagi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha davlat boshqaruv tizimini takomillashtirish to‘g`risida“gi PF-6198-son farmonlarida belgilangan bandlarni amalga oshirish maqsadida, bugungi kun o‘qituvchisi o‘z ustida tinimsiz ishlaydigan, har tomonlama keng fikrlaydigan, ilg`or pedagogik va axborot texnologiyalarini samarali qo‘llay oladigan ijodkor shaxsga, yoshlarni yuragiga chuqur kirib boradigan yuksak fazilatlar egasiga aylanishi lozim. Axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan bir davrda o‘quv shakli dars mashg`ulotlarining tuzilish tarkibiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Bugungi globallashuv sharoitida tibbiyat oliygochlari Tibbiy texnika va tibbiy texnologiyalari fanini o‘qitish jarayonida ilg`or pedagogik va axborot texnologiyalari hamda faol usullardan foydalanish, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tatbiq qilish, ko‘proq talabalarni mustaqil ishlashga undash, ilg`or tajribalardan saboq berishning turli yo‘llaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Yana bir jihat muhimki, oliy ta’lim tizimida ta’lim olayotgan tibbiyat yo‘nalishi talabalarning tanlagan kasbiga moyilligi, layoqatlari, bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularning tanlagan yo‘nalishlari bo‘yicha mutaxassis

sifatida shakllanishlari uchun Tibbiy texnika va tibbiy texnologiyalari fanlarni o‘qitishni samarali tashkil qilishni ta’minlash lozim. Har qanday jamiyatda bo‘lganidek, respublikamizning taraqqiyotida bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatga bardosh bera oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlash

asosiy muammo hisoblanadi. Mutaxassis kadrlar tayyorlash, uning sifat va samaradorligini oshirish borasida ham so‘nggi yillarda keng ko‘lamli ishlar qilindi va qilinmoqda. Jumladan, tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning mustaqilligi, ijodkorligi, tadbirkorligi, faolligi kabi xislatlarni tarkib toptirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Tibbiyot olygoхlarida Tibbiy texnika va tibbiy texnologiyalari faniniazborot texnologiyalarining dasturlashtirilgan o‘qitish g‘oyasini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, o‘qitishning yangi, hali tatbiq etilmagan, yoxud aytarli tatbiq etilmagan yangi texnologik variantlari bilan ish ko‘radi va hozirgi zamon kompyuterlari va telekommunikatsiyasining noyob imkoniyatlarini paydo etadi.

Mazkur texnologiya parametrlarini quyidagicha sinflashtirish mumkin:

1. Ishlatilish darajasiga ko‘ra: umumpedagogik.
2. Falsafiy asosga ko‘ra: sharoitga moslasha oladigan, texnografik.
3. Rivojlanishning asosiy faktoriga ko‘ra: ijtimoiy – psixologik.
4. O‘zlashtirishning konsepsiyasiga ko‘ra: assotsiativ – reflektorli.
5. Shaxsiy strukturasi bo‘yicha oriyentirlashtirishga ko‘ra: axborotlashtirish - jarayonli.
6. Mazmunan xarakteriga ko‘ra: yondashuvli.
7. Talabalarning bilish faoliyatini boshqarish tipiga ko‘ra: kompyuterli.
8. Tashkiliy shakliga ko‘ra: individual + kichik guruhlar tizimida.
9. Talaba shaxsiga yondashuv bo‘yicha: hamkorlik.
10. Ustuvor metodi bo‘yicha: Axborotli + jarayonli + dialogli + dasturlashtirilgan o‘qitish.
11. Modernizatsiyalash yo‘nalishiga ko‘ra: tashkil etish va boshqarishning samarali yo‘li.
12. Ta’lim oluvchining kategoriyasiga ko‘ra: ko‘p kategoriyali.

Kompyuter texnologiyasi bo‘yicha ta’limning konseptual holatlari qilib esa quyidagilarni olish ma’qul hisoblanadi: o‘qitish – bu talaba va kompyuter orasidagi muloqot; adaptatsiya tamoyili – kompyuterni talabaning individual xususiyatlariga moslashtirish;

o‘qitishning dialogli xarakteri; boshqarilishi: o‘qituvchi tomonidan ixtiyoriy vaqtida o‘qitish jarayoniga tuzatish kiritish imkoniyatining mavjudligi; individual va guruhli o‘qitish ishlarini optimal uyg‘unlashtirish imkonining mavjudligi; talabaningfan va kompyuter bilan muloqotida ularning optimal qulay holatlariniqo‘llab-quvvatlash imkonining mavjudligi; o‘qitishning chegaralanmaganligi, o‘qitishning tahlili va amalda qo‘llanilishi.

Ko‘pchilikning fikriga ko‘ra, tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida Tibbiy texnika va tibbiy texnologiyalari faniniazborot texnologiyalaridan foydalanish sohasida, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish eng istiqbolli yo‘nalishlardan sanaladi. Ma’lumki, o‘quv materiallarini turli tavsiya shakllari, jumladan, ba’zan o‘rganiladigan hodisani turli nuqtayi nazardan qaraydigan darsliklar, yangi mavzularni o‘zlashtirish jarayonida vujudga keladigan savollarga ixtiyoriy vaqtida to‘la javob olish imkonini beradigan lug‘aviy “spravochnik” tizimi, tabiiy fanlarni o‘rganishda namoyishli eksperimentlar va laboratoriya mashg‘ulotlari talabalar tomonidan ixtiyoriy o‘quv fanini mustaqil o‘rganishda kerak bo‘ladiganehtiyojlardan sanaladi. Mustaqil o‘qishda, materialarni o‘zlashtirishda yuqorida eslatilgan elementlardan foydalanish tartibi, har bir talabaning individual xususiyatlari tomonidan belgilanadi.

Hozirgi paytda tibbiyotda ta’lim jarayonini avtomatlashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim jarayonini avtomatlashtirishning qulay vositalaridan biri kompyuter texnologiyalaridan foydalanishdir. Kompyuterlarning keng qo‘llanilishi o‘qituvchilar tomonidan metodik qo‘llanmalarni tayyorlashdagi murakkabliklarni bartaraf qilish va bu jarayonni avtomatlashtirish imkonini beradi. Turli xil “Ta’lim resurslarini yaratishga yo‘naltirilgan dasturiy vositalar”, metodik qo‘llanmalarining

kompyuterda taqdim etilishi ko‘pgina afzallikkarga ega. Ta’lim tizimida Tibbiy texnika va tibbiy texnologiyalari faniniazborot texnologiyalari asosida masofadan o‘qitishning samaradorligini oshirish ko‘p jihatdan yaratilayotgan va qo‘llanilayotgan pedagogik dasturiy vositalar – o‘quv dastur, elektron o‘quv qo‘llanma, avtomatlashtirilgan o‘qitish kurslari va hokozalarning maqsadi, tarkibiy qismi, mazmuni va o‘qitish sifatiga bog’liq bo’ladi. O‘quvchilar mustaqil

bilim olishida, o'tilgan mavzularni takrorlashda, hamda olgan bilimlari asosida nazoratlar topshirishda o'rgatuvchi, axborot – ma'lumotli, nazorat qilish dasturlari axborot texnologiyalari asosida masofadan o'qitish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Ta'lif-tarbiya tizimida ana shu funksiyalarning hammasi o'zida mujassamlashtirgan elektron o'quv darsliklarini yaratish va undan foydalanish masofadan o'qitish tizimining eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Avliyokulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari – Toshkent, 2001.
2. E.X Bozorov. A.J Ergashev. Oliy ta'lif muassaslarida "Rentgen diagnostikasi" mavzusini o'qitishda interfaol usullardan foydalanish uslublari. O'zMU xabarlari вестникнууз acta nuuz мирзоулуғбекномидаги ўзбекистонмиллийуниверситетиилмийжурналитош кент – 2022 yil 68-71 betlar
3. Ergashev A.J Олий таълим тизимида "ионлаштирувчи нурланишлар" мавзусини модуль тизимида ўқитиш усувлари ЎзМУ хабарлари вестник нууз acta nuuz мирзо улуғбек номидаги Ўзбекистон миллий университети илмий журнали Тошкент – 2022 yil 202-204 betlar
4. Ergashev A.J Oliy ta'lifda yadro texnologiyalari fanini o'qitishda didaktik o'yin topshiriqlarini tayyorlash texnologiyasi Scientific Bulletin of NamSU- Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi – 2022-yil\_7-сон 353-359 b
5. Кутепов М.М. Дидактические возможности интерактивных электронных образовательных ресурсов // Baltic Humanitarian Journal. 2020. Т. 9. № 3(32). - С. 128-130.
6. Андриенко О.А. Современные образовательные технологии: технология самопрезентации // Балканское научно обозрение. 2019. Т. 3. № 1 (3). С.
7. А.Н.Ремизов. А.Г.Максина. А.Я. Потапенко "Медицинская и биологическая физика" 506-536 с.